XALQ DEPUTATLARI DENOV TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2025-yil 24-fevral VI-5-17-8-111-K/25 Denov tumani

Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkalariga qo‘llaniladigan koeffitsiyentlar hamda noruda qurilish materiallari uchun belgilangan qat’iy stavkalariga qo‘llaniladigan koeffitsiyentlar to‘g‘risida.

Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkalariga qo‘llaniladigan koeffitsiyentlar hamda noruda qurilish materiallari uchun belgilangan qat’iy stavkalariga qo‘llaniladigan koeffitsiyentlar to‘g‘risidagi Denov tumani soliq inspeksiyasi boshlig‘i B.Haydarovning 2025-yil 22-yanvardagi 21-01091-son xatini inobatga olib, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6, va 24- moddalariga muvofiq xalq deputatlari Denov tumani Kengashi

Q A R O R Q I L A D I:

1. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkalariga qo‘llaniladigan koeffitsiyentlar hamda noruda qurilish materiallari uchun belgilangan qat’iy stavkalariga qo‘llaniladigan koeffitsiyentlar to‘g‘risidagi Denov tumani soliq inspeksiyasi boshlig‘i B.Haydarovning hisoboti ma’lumot uchun qabul qilinsin.

suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkasiga 0,7 dan 1,3 gacha qo‘llaniladigan koeffitsiyentlar miqdori **1-ilovaga** muvofiq;

noruda qurilish materiallari uchun (sementdan tashqari) belgilangan qat’iy stavkalariga qo‘llaniladigan 1,3 barobargacha oshiruvchi koeffitsiyentlar miqdori **2-ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.

2. Mazkur qaror ijrosini ta’minlash tuman hokimining birinchi o‘rinbosari **(M.Rasulov)**ga, ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (O.Niyazov) zimmasiga yuklatilsin.

3. Ushbu qaror rasmiy e’lon qilingan kundan kuchga kiradi.

Kengash raisi



ABRAROV ILXOM
IBRAXIMOVICH

Xalq deputatlari Denov tumani
Kengashining
2025-yil 24-fevraldagi
VI-5-17-8-111-K/25 -son qaroriga
1-ilova

Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkalariga qo‘llaniladigan koeffitsientlar

(qishloq ho‘jaligi, elektr stansiyalari, kommunal xizmat ko‘rsatish korxonalari va ro‘yxati O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori bilan tasdiqlanadigan yirik soliq to‘lovchilarga nisbatan tatbiq etilmaydi)

ming so‘mda

T/r	Tuman va shaharlar nomi	Iqtisodiyotning barcha tarmoqlaridagi korxonalar, shuningdek YaTTlar		Sanoat korxonalari		Avtotransport vositalarini yuvish		Alkogolsiz va alkogolli ichimliklar ishlab chiqarish, (pivo va vinodan tashqari)	
		Yer usti	Yer osti	Yer usti	Yer osti	Yer usti	Yer osti	Yer usti	Yer osti
6	Denov tumani	1,4	1,4	1,4	1,4	1,4	1,4	1,4	1,4

Xalq deputatlari Denov tumani
Kengashining
2025-yil 24-fevraldagi
VI-5-17-8-111-K/25 -son qaroriga
2-ilova

Noruda qurilish materiallari uchun (sementdan tashqari) belgilangan qat’iy stavkalariga qo‘llaniladigan koeffitsientlar*

ming so‘mda

T/r	Tuman va shaharlar nomi	Arralanadigan xarsangtosh, xarsangtosh, ohaktosh-chig‘anoq, ohaktosh *(sement va ohak ishlab chiqarish uchun mo‘ljallangan ohaktoshdan tashqari)*, dolomitlar, qurilishda ishlatiladigan mayda toshlar, bazalt, granodioritlar, granosienitlar, sienitlar, porfiritlar, diabaz-porfiritlar, gabbro, slanes jinslari, karbonat xom ashyosi, travertin	Tabiiy bezaktoshdan bloklar	Marmar	Granitlar	Gips toshi, gips va angidrid, ganch	G‘isht-cherepitsa xom ashyosi, lyosslar va lyossimon jinslar	Qum-shag‘al aralashmasi, qurilish qumi, qumtoshlar)
1	Denov tumani	1,3	1,3	1,3	1,3	1,3	1,3	1,3

***** Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi va viloyatlar xalq deputatlari Kengashlari noruda qurilish materiallari uchun (sement ishlab chiqarishga mo‘ljallangan ohaktoshdan tashqari) qat’iy belgilangan stavkalarga 1,3 barobargacha oshiruvchi koeffitsient belgilashga haqli